

# COURSE: BASIC OF CERTIFICATION AND QUALITY MANAGEMENT

**Week 1.** Introduction to subject. The goals and objectives of subject

**Lecturer:** PhD. B.Khamdamov (Andijan Machine Building Institute)



# SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI VA SIFAT MENEJMENTI

**1-Ma'ruza.** Fanga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari

**Ma'ruzachi:** PhD. B.Xamdamov (Andijon Mashinasozlik Instituti)



# 1-Mavzu: Fanga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari

## Reja:

- 1.1 Sertifikatlashtirish asoslari faniga kirish
- 1.2 Sertifikatlashtirish asoslari fanining qisqacha tarixi
- 1.3 Fanning maqsadi va vazifalari
- 1.4 Sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar.

# sertifikat atamasi

malaka olganlik  
to'g'risidagi  
tasdiqlovchi hujjat

mahsulotni sifati  
to'g'risidagi  
hujjat

mahsulotni  
hududimizga olib  
kirish yoki olib ketish  
uchun bojxonaga  
ko'rsatilishi lozim  
bo'lgan hujjat

O'ylaymizki, ushbu kursimizning bo'limlarini o'qib va o'rganib chiqib, ma'lum ko'nikmaga ega bo'lganingizdan so'ng ushbu atamaga albatta aniq va mukammal javob topasiz.

## Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti fani quyidagi masalalarini qamrab oladi.

mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish faoliyati

milliy sertifikatlashtirish tizimi va me'yoriy-xuquqiy asoslar

sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tajribalar

sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari


sertifikatlashtirish sxemalari


sertifikatlashtirish faoliyatida inspeksion nazorat

sinov laborayalarini akkreditlash

sertifikatlashtirish organlariga umumiy talablar


korxonalar va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish





## Bugungi kunda

- ❖ sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- ❖ ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini boshqarish
- ❖ sifatni ta'minlashda sertifikatlashtirish faoliyati
- ❖ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini kafolatlanishi,
- ❖ muvofiqligini xolisona baxolash
- ❖ raqobatbardoshligini ta'minlash,
- ❖ ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlanishi bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish muhim o'rin tutadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 2 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5133 sonli qarori va qaror ilovasida belgilangan tarmoqlar va mahalliy korxonalarda standartlashtirish, mahsulot sifatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar sanoat korxonalari va sohaga aloqador barchaning oldiga dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Xalqaro standartlarni korhonalarda joriy qilish

Sifat menejmenti tizimlarini korhonalarda joriy qilish

Mahsulotlarning xalqaro talablarga muvofiqligini baholash

Tizimli ravishda korxonada ishchi xodimlarini standartlar va sifat tizimlari mohiyati bo'yicha mlakasini oshirish

Hududlarda va korhonalarda mahsulot sinovlarini amalga oshirish uchun sinov laboratoriyalarini tashkil qilish va modernizatsiyalash

Mahsulotlarning sifatiga e'tibor berish eramizdan avvalgi **2150 yillardan** beri boshlab qayd qilingan. Bu davrda savdo-sotiq aloqalari ma'lum hududlar chegarasidan chiqib, xalqaro miq'yosda rivojlana boshlagan edi.


O'troqchilik paydo bo'lishi bilan hamma uchun majburiy qoidalar ishlab chiqila boshladi, misol uchun **Hindistonda "Xammurapi" kodeksi** amalga kiritilgan. Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750 yillardagi shohi Xammurapining adolatpesha qonunlari majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094 yillar)ning qonunlari. Uning 229-moddasida qurilgan binolar buzilsa va bundan odamlar yarador bo'lsa yoki buyumlarga zarar yetkazilsa, quruvchi jarimalarga tortilishi, biron odam o'lganida esa qatl qilinishi belgilangan.

**Bunga o'xshash qoidalar Finikiyaliklarda ham qo'llanilgan: auditor (nazoratchi)ning sifat nazoratida yo'l qo'ygan xatosi uchun qo'li kesilgan.**

Qadimgi Turkiyada podshoh Boyaziddin II Ixtisabining «Bursa» qonunlarida sifatsiz tovarlar bo'yicha jazolar belgilagan.

Qadimdan bizda bir tushuncha bor. Xarid paytida savdo mukammal va to'liq bo'lishi uchun uchta tomon ishtirok etishi kerak.

Birinchi tomon –  
oluvchi (xaridor),



ikkinchi tomon –  
sotuvchi  
(tayyorlovchi)

uchinchi – xolis  
tomon

Sotilayotgan buyum yoki mahsulotga qo'yilgan narx ushbu mahsulot ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga mutanosib ekanligi to'g'risida kafolat bergan.


**"Sertifikatlashtirish"** tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ning sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi (CERTICO) tomonidan aniqlangan va shakllantirilgan.

Asrimizning 20-30 yillarida yetakchi iqtisodiy davlatlar sertifikatlashtirish faoliyatini ancha rivojlantirib, ommalashtirdilar.

1920 yilda Germaniya standartlari instituti (DIN) Germaniyada DIN muvofiqlik belgisini o'rnatdi, bu ko'plab turdagi mahsulotlarga taalluqli edi.

Buyuk Britaniyada bir nechta milliy sertifikatlash tizimlari mavjud bo'lib, eng kattasi Britaniya Standartlari Institutidir.

Frantsiyada 1938 yilgi farmon bilan milliy sertifikatlash-tirish tizimi yaratilgan. Tizimni umumiy tashkil etish va boshqarish uchun javobgarlik Frantsiya standartlashtirish assotsiatsiyasiga (AFNOR) yuklangan.




O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'YK) doirasida sertifikatlashtirish masalalarida integratsiya bo'yicha ishlar 70-yillarning oxirida boshlangan. 1980 yilda O'YK Standartlashtirish instituti "Mahsulot sinovi natijalarini o'zaro tan olishning umumiy shartlari" ni ishlab chiqdi.

**Rossiya Federatsiyasida mahsulotni sertifikatlash 1979 yilda rivojlana boshladi. 1986 yilda "Mashinasozlik mahsulotlarini sertifikatlash bo'yicha vaqtinchalik nizom" qabul qilindi. 1992 yil 1 mayda Rossiyada majburiy sertifikatlash tizimi joriy etildi.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 1992 yilda Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi («O'zdavstandart») tashkil etildi. 2002 yilda markaz «O'zstandart» agentligi tashkilotiga aylantirildi. 1993 yild «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

# Sertifikatlashtirish soxasi bo'yicha yillar mobaynida shakllantirilgan manbalar


Yil↓	Hujjatlar↑
2024 yil	6
2023 yil	3064
2022	4979
2021 yil	4788
2020	4627
2019	4477
2018	4162
2017 yil	3966
2016 yil	4048
2015 yil	4007



Retrieved from "Documents by Year" by the International Scopus database. September 11, 2023, <https://www.scopus.com/term/analyzer.uri?sort=plf-f&src=s&sid=322ce6f8401999f30f97862a658bb488&sot=a&sdt=a&sl=28&s=TITLE-ABS-KEY%28certification%29&origin=resultslist&count=10&analyzeResults=Analyze+results>

# Sertifikatlashtirish soxasida mamlakatlar bo'yicha shakllantirilgan manbalar

Yon↑	Hujjatlar↓
Qo'shma Shtatlar	34542
Birlashgan Qirollik	6452
Germaniya	5612
Xitoy	4195
Kanada	3656
Italiya	3634
Fransiya	3316
Avstraliya	2447
Ispaniya	2365




Retrieved from "Documents by Country" by the International Scopus database. September 11, 2023. <https://www.scopus.com/term/analyzer.uri?sort=plf-f&src=s&sid=95bb83f5a655b080d033fb2aa922360a&sot=a&sdt=a&sl=28&s=TITLE-ABS-KEY%28certification%29&origin=resultlist&count=10&analyzeResults=Analyze+results>

# Sertifikatlashtirish soxasida mualliflar bo'yicha shakllantirilgan manbalar

Muallif↑	Hujjatlar↓
Anon	171
Quevauviller, P.	82
La Vekkiya, C.	76
Negri, E.	74
Norcini, J.J.	66
Levi, F.	64
Lipner, RS	64
Mor, V.	64
Qal'a, NG	63

Mualliflar bo'yicha



# Fanning maqsadi

## Talabalarda

maxsulot, xizmat, korxonalar sifati menejmenti tizimi xamda xodimlarni sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish sxemalari, sertifikatlashtirishning shakllari, sinov laboratoriyalarini tashkil qilish, sertifikatlashtirish va sinov natijalarini rasmiylashtirish xamda muayyan sharoitlarga mos xolda sertifikatlashtirishni tashkillashtirish, sifati menejmenti tizimini korxonalarda joriy etish va sertifikatlashtirish bo'yicha

bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

## Fanning vazifasi -

- sertifikat, sertifikatlashtirish faoliyatlari to'g'risida;

- sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro, xududiy va milliy tashkilotlarning faoliyatlari va tuzilmasi to'g'risida;

- maxsulot va xizmatlarining sifatini kafolatlovchi hujjatlar haqida;

- sertifikatlashtirish tartibi, qoidalari va sertifikatlashtirish sxemalari;

- sertifikatlashtirish faoliyatida inspeksion nazorat va sertifikatlashtirish organlariga qo'yilgan umumiy talablar;

- sinov laborayalarini akkreditlash;

- korxonada va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish;

o'rgatishdan iborat

## Fanni o'zlashtirish jarayonida tinglovchilar :

- sertifikat, sertifikat turlari;
- sertifikatlashtirish faoliyatlari va sxemalari to'g'risida;
- sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro, hududiy va milliy tashkilotlarning faoliyatlari va tuzilmasi to'g'risida;
- mahsulot va xizmatlarining sifatini kafolatlovchi hujjatlar haqida;
- sinov laboratoriyalarini akkreditlash to'g'risida;
- savdodagi texnik to'siqlar va mahsulotlarning eksport va import jarayonlari;
- korxonalar va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish;

haqida tasavvurga ega bo'ladilar

## Fanni o'zlashtirish jarayonida tinglovchilar :

- ishlab chiqarish, mahsulotlar va xizmatlar hamda xodimlarni aniq sharoitlar uchun texnik-iqtisodiy asoslangan holda sertifikatlashtirishni to'g'ri tashkillashtirish;
- sertifikatlashtirish ob'ektlarining optimal ko'rsatkichlari va sifatini baholash maqsadida usullarni tanlash;
- sertifikatlashtirish ob'ektlarni boshqa tarmoqlar bilan aloqadorligini tahlil qilish;
- mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini va nazorat parametrlarini to'g'ri aniqlash

ko'nikmalariga ega bo'ladilar

## Fanni o'zlashtirish jarayonida tinglovchilar :

- mahsulot, xizmat va jarayonlarni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash;
- sertifikatlashtirishni texnik-iqtisodiy samaradorligi aniqlash
- muvofiqlikni baholash usullarini qo'llash,
- mahsulotlarni sinash
- sertifikatlashtirish sinovi jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish,
- muayyan sertifikatlashtirish idorasida sertifikatlashtirish ishlarni takil qilish

malakalariga ega bo'ladilar

# Xalqaro miqyosdagi sertifikatlashtirish va sifat tizimiga oid tashkilotlar



Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)



Xalqaro elektrotexnika komissiyasi - (MEK)



BMT Evropa iqtisodiy komissiyasi



Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sertifikatlashtirish faoliyati



ES - Evropa ittifoqida sertifikatlashtirish



Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferentsiya - (ILAK)




Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - (ISO) o'zining ishlanmalari bilan turli xil milliy qonuniy holatlarda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish ishlari va o'z navbatida sertifikatlashtirish usullarini uyg'unlashtirishda yordam berib kelmoqda.



ISO tashkiloti IEC bilan hamkorlikda ishlab chiqqan sertifikatlashtirish sohasida asos bo'luvchi ISO/IES 28 "Uchinchi tomon mahsulotni sertifikatlashtirish tizimi namunaviy umumiy qoidalari" qo'llanmasi milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish bo'yicha tavsiya sifatida foydalanilmoqda.



Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.



1.4.1-rasm. ISO xalqaro tashkilotining tashkiliy tuzilmasi




Xalqaro elektrotexnika komissiyasi – XEK (IEC) ISO tashkilotidan farqli ravishda xalqaro sertifikatlashtirish tizimi va standartlarni ishlab chiqishda hamda mahsulot muvofiqligini sertifikatlashtirish va sinashda me'yoriy bazasining xavfsizlik qismlari bo'yicha uslubiy muammolar bilan shug'ullanadi



Elektrotexnika sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha ishlar 1881 yildan boshlangan. Shu yilda elektr bo'yicha birinchi Xalqaro kongress bo'lib o'tgan. Keyinroq 1906 yili Londonda 13 mamlakat vakillarining konferentsiyasida maxsus idora - **xalqaro elektrotexnika komissiyasi (XEK)** tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu idora elektr mashinalari sohasi bo'yicha atamalar va parametrlarni standartlashtirish masalalari bilan shug'ullana boshladi.



Hozirgi vaqtda 41-ta milliy qo'mitalar XEKning a'zolari hisoblanadi. Bu mamlakatlarda yer qurrasining 80% aholisi yashab, 95% dunyodagi ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining iste'molchisi hisoblanadi.



1.4.2-rasm. XEK xalqaro tashkilotining tashkiliy tuzilmasi


# Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti

Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti (Европейская организация по контролю качества) birinchi konferentsiyasi chaqirilgan yili, 1957 yilda tashkil topdi.

EOKK da har yili konferentsiya o'tkaziladi. Ushbu konferensiyada asosan quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha tajriba almashinish;
- sifatning nazariy va amaliy masalalarini xal qilish;
- sohadagi so'nggi yutuqlarni targ'ibot qilish;
- sifatning dolzarb muammolari bo'yicha fikr almashinish;
- yangi muammolarni izlab topish;
- sifatga taaluqli ko'pgina boshqa masalalar.

EOKK tarkibida 26 - ta to'liq huquqli a'zolari, 12 – ta jamoa muxbir a'zolari hamda 37 – ta alohida muxbir a'zolari va 10 - ta faxriy a'zolari bor. Qardosh tashkilotlarning 11 - tasi bilan bitimlariga egadir



## Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sertifikatlashtirish faoliyati

*MDH da sertifikatlashtirish faoliyati MDH davlatlarida 1992 yilda imzolangan standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi siyosiy kelishuvni yuritish to'g'risidagi Kelishuvga asosan sertifikatlashtirish bo'yicha faoliyat olib boriladi.*

Davlatlar Kelishuvi nizom asosida hamkorlik – Kelshuv qatnashchilari milliy sertifikatlashtirish tizimini ISO/IES qo'llanmalari asosida shakllantiradi va Ushbu sohadagi usullar bilan boyitib borishadi.



Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferentsiya - (ILAC) 1977 yil (Kopengagen, Daniya)da birinchi bo'lib tashkil etilgan.

Konferentsiyani ish olib borishidan **maqsadi savdoda texnik to'siqlarni sinov laboratoriyalarini akkreditlash yo'li bilan xalqaro darajadagi tamoyillar va usullarni, sinov natijalarini o'zaro ishonchliligini o'rnatish** asosiy yo'nilishdir.

**ILAC o'zining  
faoliyati darajasida  
xalqaro kelishuvni  
ikki turini ko'zda  
tutadi:**

**- akkreditlan-  
magan laboratoriya  
sinov sertifikatlari,  
bayonnomalarini  
o'zaro tan olish  
bo'yicha kelishish;**


**- milliy tizim  
akkreditlagan sinov  
laboratoriyalarini  
o'zaro tan olish  
bo'yicha kelishish  
(sertifikatlarni va  
ulardan foydalanish  
imkoniyati  
mavjudligi).**

**ILAC (International Laboratory Accreditation Conference) birinchi marta 1977 yili Kopengagen (Daniya) da chaqirilgan.**

**ILAC ning yaratilishidan milliy tizimlarini o'zaro tan olish bilan amaldagi va xalqaro bitimlardagi ma'lumotlarni, mahsulotni sinash natijalarini va boshqa mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirishga harakat qilishdir.**




**Akkreditlangan sinovlar tushunchasi mahsulotni sertifikatlashtirish faoliyati bilan chambarchas bog'langandir.**




1980 yilda chaqirilgan ILAC ning konferentsiyasida milliy tizimlarining akkreditlangan laboratoriyalarini o'zaro tan olish bo'yicha amaldagi ikki va ko'p tomonlama bitimlar haqida ma'ruza tayyorlashga qaror qabul qilindi.



Ish jarayonida ikki xil xalqaro bitimlar borligi namoyon bo'ldi:



**Laboratoriyalarni akkreditlamasdan sinov natijalarini va sertifikat bayonnomalarini o'zaro tan olish bitimi;**



**Sinov laboratoriyalarining akkreditlash milliy tizimlarini o'zaro tan olish bitimi (tan olishni sertifikatga yozish bilan).**

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullaev P.R., Matyakubova P.M., Turaev SH.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Dasrlik, T.: Lesson-Press, 2015.
2. Ismatullaev P.R., Axmedov B.M., Matyakubova P.M., Xamraqulov G'.X., Turaev SH.A. Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti. Dasrlik. Toshkent, Sano-standart, 2014.
3. Xamdamov B.R., Hakimov D.V., Mamajonov A.A. Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti. Darslik. Toshkent, NIF-MSh, 2020.
4. Axmedov B.M., Ismatullaev P.R., Turaev SH.A. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish asoslari, o'quv qo'llanma. O'zR OO'MTV; TDTU. - Toshkent, 2007.
5. Ахмедов Б.М., Абасов А.А. Система менеджмента качества – основа конкурентоспособности. Изд. “Асп-Матбуот”. 2004.
6. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)
7. [www.uztest.uz](http://www.uztest.uz)

**E'tiboringiz**

**uchun rahmat !!!**